

026.2
82

Hamidulla BOLTABOYEV,
Dilrabo QOZOQBOYEVA


B-84



MUMTOZ

ADABIYOTGA KIRISH
POETIKA ASOSLARI

z6.2
82



B - 84 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI

HAMIDULLA BOLTABOYEV,
DILRABO QOZOQBOYEVA

MUMTOZ ADABIYOTGA KIRISH POETIKA ASOSLARI

O'quv qo'llanma

Toshkent
«MUMTOZ SO'Z»
2023



UO'K: 821.512.133
KBK: 83.2(50')

Boltaboyev Hamidulla, Qozoqboyeva Dilrabo. O'zbek adabiyoti tarixi va yangi o'zbek adabiyoti (Mumtoz adabiyotga kirish va poetika asoslari). O'quv qo'llanma. Toshkent: O'zMU: MUMTOZ SO'Z, 2023. Mas'ul muharrir: Nasimxon Rahmonov, O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. – 156 b.

Oliy ta'lim tizimida o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi o'qitilar ekan, uning nazariy asoslari, janrlar tizimi, ifoda shakllari va boshqa muhim masalalari daslab ushbu fanning "Mumtoz adabiyotga kirish va poetika asoslari" modulida o'tiladi. Mazkur qo'llanma oliy ta'lim tizimida mayjud me'yoriy hujjatlar, fan dasturi va sillabuslari asosida tayyorlandi.

O'quv qo'llanma universtitarning O'zbek filologiyasi fakulteti talabalari, magistrlar hamda mumtoz adabiyot bilan qiziquvchi o'quvchilar auditoryasiga mo'jallangan.

As the history of Uzbek classical literature is taught in the higher education system, its theoretical foundations, system of genres, forms of expression and other important issues are initially covered in the "Introduction to Classical Literature" module of this subject. This manual was prepared on the basis of existing regulations, science and work programs in the higher education system.

The manual is intended for the audience of students of the Uzbek philology faculty of universities, masters and students interested in classical literature.

В системе высшего образования во время преподавания курса "Истории узбекской классической литературы" и его теоретические основы, системы жанров, формы выражения и других важных вопросов изначально рассматриваются в модуле "Введение в классическую литературу и основы поэтики". Данное пособие было подготовлено на основе нормативных документов, учебных программ и силабусов, использующих в системе высшего образования.

Пособие ориентировано на аудиторию студентов факультета Узбекской филологии университетов, магистров, интересующихся классической литературой.

Mas'ul muharrir:

Filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmonov

Taqrizchilar:

M.Asadov – f.f.d., professor, O'zR FA. O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti;
O.Hamroyeva – f.f.d., professor v.b, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'quv qo'llanma O'zMU O'quv-uslubiy Kengashining 2023-yil 3-oktabrdagi majlisida
(3-sonli bayonnomma) nashrga tavsija etilgan.

ISBN 978-9943-6085-2-4

taqrib

000

© H.Boltaboyev, D.Qozoqboyeva, 2023
© "MUMTOZ SO'Z", 2023

KIRISH

O‘zbek adabiyoti tarixi ming yillik adabiy-badiiy tajribaga ega, ayniqsa, o‘zbek mumtoz adabiyoti asrlar davomida sayqallanib, saralanib, muhtasham manbalar majmuasi holiga kelgan. Bu boy adabiy manbalarni tizimli suratda o‘rganish uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi va yangi o‘zbek adabiyoti” fanining dastlabki bosqichi sanalgan “Mumtoz adabiyotga kirish va poetika asoslari” modulini o‘qitish lozim. Mazkur o‘ziga xos kirish modulisiz mumtoz adabiyotni o‘rganib bo‘lmaydi. Shuday ekan, fan oldiga bir qator talablar qo‘yiladi, uning maqsad va vazifalari belgilanadi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – o‘zbek adabiyoti tarixi va mumtoz poetika bilan bog‘liq boy adabiy va ilmiy meros bilan filolog tala-balarni tanishtirish, adabiy siymo va davr xususiyatlarini anglash, ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy xazinani tom ma’noda qadrlashga o‘rgatish orqali ularni yuksak ma’naviyatlari va keng ma’rifat sohibi etib tarbiyalashdir.

Fanning vazifasi – o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek milliy ma’naviyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash orqali yoshlarda kuchli tafakkur tarzini shakllantirish, o‘zbek adabiyoti tarixi haqidagi har tomonlama bilim hosil qilish, ma’naviy dunyosi mukammal bo‘lishiga ko‘maklashishdan iborat.

Shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda talabalar quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerak:

- *mumtoz adabiyot* tushunchasi va uning xususiyatlari, manbalarini va obyektlari, mumtoz adabiyotni o‘rganish an’analari, mumtoz matnlarni anglashda lug‘at ilmi;
- Alisher Navoiy ijodiy merosi va badiiy mahorati;
- *adab* ilmining tarkibiy qismlari, fasohat va balog‘at qoidalari, nazmda i’joz maqomi, haqiqat va majoz tushunchasi;

- mumtoz adabiyot janrlari poetikasi, aruz vaznining umumiy qonuniyatları;
- badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari va mumtoz she'riyatda qo'llanish usullari;
- o'zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va xususiyatlarini belgilash;
- adabiy tur va janrlar tasnifi va ifoda shakllari;
- mumtoz asarni badiiy tahlil qilish asoslari, yondashuv usullari;
- she'riy tizimga oid nazariy qarashlar;
- mumtoz adabiyotdagi badiiy obraz, badiiy tasvir vositalari;
- eski o'zbek yozuvini bilishi, lug'at ilmidan xabardor bo'lishi;
- badiiy asarni mustaqil o'qish, tahlil qilish va baholash.

Demak, "O'zbek adabiyoti tarixi" fanini o'rghanishdan avval uning maqsad va vazifalarini tushunish uchun "Mumtoz adabiyotga kirish" moduli tashkil etildi. Ushbu modul doirasida talabalar adabiyot tarixi, uning jamiyat tarixi tarkibida o'rganilishi, davrlashtirish tamoyillari, adabiy davrlarning chegaraviy belgilari xususida ma'lum bir tasavvurga ega bo'lishlari lozim.

1-mavzu. “MUMTOZ ADABIYOTGA KIRISH” KURSINING OBYEKTI VA PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Modul mazmunining obyekti va ularni o‘rganish tamoyillari.
2. Kursning maqsad va vazifalari.
3. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida.

Tayanch tushunchalar: obyekt, predmet, tamoyil, maqsad, vazifa, adabiyot tarixi, jamiyat tarixi, mumtoz adabiyot, davrlashtirish.

1. Modul mazmunining obyekti va ularni o‘rganish tamoyillari. Modulning mazmunini o‘zbek adabiyoti tarixi, mumtoz adabiyotning shakllanishi va taraqqiyotini belgilovchi omillar tashkil qiladi. Shunday ekan, bu kursning bevosita maqsadi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mumtoz asarlarni yoki adiblar ijodini o‘rganishga kirishish emas, balki uning obyekti milliy adabiyotning shakllanishi va rivojiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni o‘rganish, mumtoz adabiyotning ildizlari va nazariy asoslari hamda umumiy qoidalari haqidagi bilimlarni berishdan iborat. Shuning uchun ham ushbu modul nomi “Mumtoz adabiyotga kirish” deb belgilangan, uning obyekti esa o‘zbek adabiyotshunosligi tarixi, mumtoz poetikaning nazariy manbalari, badiiy asarlар tarkibidagi ilmiy va tasavvufiy qarashlar, mumtoz va nazariy poetikaning ilmiy asoslari, jahon poetika ilmida asosiy qarashlar va ularni adabiy tahlil jarayonidagi o‘rni, ilmiyadab tarkibidagi fanlarga doir umumiy qonuniyatlarni tashkil qiladi.

Ushbu fan obyektidan kelib chiqqan holda uning predmeti esa islomgacha bo‘lgan davrda poetikaga doir manbalar, islom renessansi davri badiiyati tarixi, arab-fors-turk mumtoz poetikasiga doir

asosiy asarlar va ularning badiiy ijoddagi o‘rni, mumtoz poetik terminologiyasi hamda ularning o‘zbek tilidagi muqobillari tashki etadi. Fanning obyekti va predmetini aniqlash orqali talabalar yuqorida ko‘rsatilgan sohalarga oid nazariy masalalarni bilishi, poetik nazariyasiga doir asosiy manbalarni tahlil qila olishi, adabiy asarlarni ularning nazariy qoidalar bilan bog‘liq holda yaratilganini tu shunishi, badiiy matn talqini va tahlilida an’anaviy obrazlar mohiyatini anglagan holda ish ko‘rishi, mumtoz adabiy tur va janrlardag asarlarni poetika talablari asosida tahlil qila olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

2. Kursning maqsad va vazifalari. Kursning asosiy maqsad o‘zbek adabiyoti tarixi va mumtoz poetika bilan bog‘liq boy adabiy va ilmiy meros bilan filolog talabalarni tanishtirish, adabiy-ma’naviy xazinani qadrlashga o‘rgatish, yoshlarni yuksak ma’naviyatlari va keng ma’rifat sohibi etib tarbiyalash hamda o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek milliy ma’naviyatining shakllanishi hamda va rivojlanish qonuniyatlarini anglash, adabiy tafakkur tarzini shakllanish, o‘zbek adabiyoti tarixi haqida bilimlarni hosil qilishdan iborat.

Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda kursning vazifalari quyidagicha belgilanadi:

- mumtoz adabiyotda qo‘llaniladigan faol istilohlar va ularning ma’noviy qamrovini o‘rganish;
- o‘zbek mumtoz adabiyoti vujudga kelgan davr, uning ildizlari va milliy tildagi adabiyotning tarqalish **hudularini** tasavvur qilish;
- o‘zbek mumtoz adabiyotining **janrlar tizimi** va she’r nav’lari ni aniqlash, bu janrlarda yaratilgan asarlarni tahlil qilishga kirishish;
- badiiy adabiyotdagi doston, qissa, g‘azal, ruboiy, tarji’band va boshqa janrlarda ifodalangan g‘oyalar va timsollar mohiyatini anglash;

- mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlar doirasini aniqlash va undan badiiy tahlil jarayonida foydalanish;
- poetika istilohing ma'noviy qamrovi va mohiyatini anglash;
- mumtoz poetika tizimidagi fanlar majmuasi ilmi adab (ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya...) va ularning mohiyati haqida tasavvur olish;
- aruz ilmiga doir zaruriy istilohlar mohiyatini bilish va ularni badiiy asarlarni vazn jihatidan tahlil qilishda qo'llay olish;
- qofiya ilmiga oid nazariy manbalarga tayangan holda she'riy matnlar qofiya tizimini o'rganish;
- mumtoz adiblar asarlarida aks etgan badiiy san'atlarni aniqlash va ularni yaxlit badiiy matn mohiyatidan kelib chiqib tushunish;
- keyingi bosqichlarda o'rganiladigan o'zbek adabiyoti tarixi va mumtoz poetika manbalarini tushunish uchun bazaviy ma'lumotlar asosini yaratishdan iborat.

3. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. “Adabiyot tarixi: qachondan qachongacha?” degan savol nafaqat soha mutaxassislarini, balki adabiyot tarixi bilan shug'ullanuvchi talaba va mualiflarni ham qiziqtirishi tabiiy. Shuning uchun biz badiiy adabiyot tarixini insoniyat tarixining bir qismi sifatida tushunamiz. Insoniyat tarixi esa, avvalo, ikki turlidir: ...umumiylar tarix va xususiy tarix. Umumiylar tarix shunday tarixki, hamma millat va jamiyatlarning ahvolini yozaturg'an ilmdir. Xususiy tarix – yolg'iz bir millat va bir jamiyatning tarixini yozadi”¹. Shu bilan birga umumiylar tarix bir necha turlarga: fuqarolik tarixi, davlatchilik tarixi, madaniy tarix v.b.larga ajraladi. Bundan so'nggisi, ya'ni madaniyat tarixi san'at tarixi, shaharlar tarixi v.b. qismlarga bo'linadi. Madaniyat tarixinning eng unumli sohalaridan biri san'at tarixidir. Bu tarix, o'z

¹ Фиграт. Мухтасар ислом тарихи / Танланган асарлар. V жилд. Т.: Маънавият, 2006.

navbatida, san'atning turlaridan kelib chiqib: musiqa tarixi, rassomchilik tarixi, haykaltaroshlik tarixi, raqs tarixi v.b. qatorida badiiy adabiyot (san'atning turi) tarixiga alohida e'tibor beriladi. Demak, adabiyot tarixi xalq madaniy tarixining harakatdagi muayyan bir qismi sifatida anglashiladi, u "xususiy tarix" tarkibiga kirishi bilan birga, umumiy tarixning eng samarali sohalaridan biri sanaladi.

Adabiyot tarixi istilohi ilk badiiy asarlar (dastlab og'zaki shaklda yoki mifik tafakkur asosida)dan tortib hozirga qadar o'tgan adabiy-badiiy asarlarga, ya'ni adabiy (kengroq ma'noda) ma'naviy merosga nisbatan qo'llaniladi. Adabiy asarlar yakka shaxslar tomonidan yaratilgan bo'lsa ham yozuv hali shakllanmagan dastlabki davrda jamoaviy xarakterga ega bo'lган. Ya'ni bir iste'dod tomonidan yaratilgan bo'lsa u og'izdan-og'izga o'tishi bilan boyigan, sayqallangan va anonimlashgan, natijada jamoaviy xarakter kasb etган. Shunday ekan, adabiy asarning yaratuvchisi bir shaxs bo'lishi mumkin, lekin badiiy adabiyotning yaratuvchisi bir kishi bo'la olmaydi. Adabiyot ma'lum bir milliy tilda muloqot qilayotgan xalq tomonidan yaratiladi. Qaysi xalq vakillari iste'dodliroq bo'lsa, ular o'z iste'dodiga yarasha kuchliroq (badiiy jihatdan) asarlarni ertaroq yaratganlar. Adabiyot tarixi, demak, jamiyat tarixi tarkibida тушунлади

Savol va topshiriqlar:

1. Modul tushunchasi nimani anglatadi, modul-kredit tizimi o'zigacha mavjud bo'lган an'anaviy ta'lim tizimlaridan nimasi bilan farq qiladi?
2. Modul mazmunining obyekti sifatida nimani belgilash mumkin, predmeti deyilganda-chi?

3. “O‘zbek adabiyoti tarixi” kursining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

4. Adabiyot tarixini jamiyat tarixi tarkibida o‘rganish tamoyillarini asoslang.

Mavzu bo‘yicha test savollari

1. Modul-kredit tizimi o‘zigacha mavjud bo‘lgan an’anaviy ta’lim tizimlaridan nimasi bilan farq qildi?

A. Zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalar qo‘llashi bilan.

B. Bir-ikki oliy ta’lim muassasalari uchun emas, balki jahondagi turdosh ta’lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallanganligi bilan.

C. Ikkala javob ham to‘g‘ri.

2. Modul tizimining obyekti sifatida nimani tushunishimiz mumkin?

A. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixining umumiylari nazariy masalalari, ilmiy asoslari va manbalari.

B. Badiiy asarlar tarkibidagi ilmiy va tasavvufiy qarashlar, ilmiy adabga oid asosiy qarashlar.

C. Barcha javoblar to‘g‘ri.

3. “O‘zbek adabiyoti tarixi” kursining maqsadi nimalardan iborat?

A. Fan doirasida ilmiy ish qilish.

B. Mumtoz poetika bilan bog‘liq boy adabiy va ilmiy meros bilan filolog talabalarni tanishtirish, o‘zbek milliy ma’naviyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash.

C. O‘rganilgan o‘zbek mumtoz adabiyotining janrlar tizimi va she’r nav’larini aniqlab, bu janrlarda yaratilgan asarlarni tahlil qilishga kirishish.

4. O'zbek adabiyoti tarixining yaratilishida qaysi asarlar ilk qo'llanmalar sanaladi?

A. Prof. Fitratning "Eng eski turk adabiyoti namunalari", "O'zbek adabiyoti namunalari. 1-jild".

B. Fuad Ko'pruluning "Türk edebiyati tahrizi" kitobi.

C. Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan "Jahon adabiyoti tarixi" kitobi.

Glossary

1. Modulning mazmuni – o'zbek adabiyoti tarixi, mumtoz adabiyotning shakllanishi va taraqqiyotini belgilovchi omil.

2. Umumiylar tarix – hamma millat va jamiyatlarning ahvolini ko'rsatadigan ilm.

3. Xususiy tarix – yolg'iz bir millat va bir jamiyatning tarixini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Болтабоев Х. Эртани деган кечани кўймас / «ЎзАС», 1997, 19 декабрь; Мумтоз сўз қадри. Т.: Адолат, 2004. Б. 5–11.

2. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихини даврлаштириш. Т., 2018.

3. Шарқ мумтоз поэтикаси Х.Болтабоев талқинида. Т., 2006; 2008. Б. 5–14.

4. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 1–жилд. Т.: Фан, 1978. Б. 7–18.

2-mavzu. MUMTOZ ADABIYOTNI O'RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Reja:

- 1. Mumtoz adabiyotni o'rganishning metodologik asoslari.**
- 2. Mumtoz adabiyot tushunchasi va mumtozlik belgilari.**
- 3. Davrlashtirish istilohi va uni chegaralash tamoyillari.**

Tayanch tushunchalar: metodologik asos, mumtoz adabiyot, mumtozlik belgilari, davrlashtirish.

1. Mumtoz adabiyotni o'rganishning metodologik asoslari.

Adabiyot – millat ko'zgusi. Har bir millat jahon hamjamiyatida o'zining borligini, taraqqiyotga qobiligini tayin qilar ekan, uning tili va adabiyoti bu xayrli olamshumul ishda uning qo'rg'oni, muddafaachisi vazifasini bajaradi. Cho'lpionning «Adabiyot nadur?» maqolasi «Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixi...» qabilidagi izoh bilan boshlangan¹. Bundan har bir millat o'z ko'ngil tarixini bilishi, uning mayl va intilishlarini anglashi uchun ham o'z adabiyoti tarixini chuqur o'rganishi lozim degan xulosa kelib chiqadi. Mumtoz adabiyotdagi eng ulug' adiblar tajribasi yoki yuqori darajada rivoj topgan adabiy davrlar tarixi shuni dalillaydiki, ijodkorlar o'z milliy adabiyoti an'analarini chuqur o'zlashtirib, uni o'ziga singdirgandagina yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yishlari mumkin. Adabiyotimiz tarixidagi ana shunday yuksaklik pog'onalarini sifatida tasavvuf she'riyati va temuriylar davri adabiyoti tan olingen ekan, tarixga shu davrlardan keyin kirib kelgan adabiy kuchlar zimmasida o'sha boy va rangin adabiy merosga vorislik qilish vazifasi ham turgan edi. Jadid adabiyotining

¹ Чўлпон А. Адабиёт надур? / Чўлпон. Асарлар. 4-жилд. Т.: 2016.

Sharq madaniyati tarixida yangi ko'tarilish davri yasagani ham uning yangilikka intilish hissi barobarida mumtoz adabiyotni churq o'rganib, o'zlashtirgani tufayli hamdir. Birgina Fitrat, Qodiriy va Cho'lpon kabi ulug'larning adabiy taqdiri bu haqiqatni amalda tasdiqlagan. Fitrat domla 1928-yilli «bizning qanchalar boy, lekin sochilgan, o'rganilmagan adabiyot tariximiz bor»² deb yozgandi. Adabiyot tarixchilarining keksa avlodni bizga yetkazgan ilmiy mersdan faxlanish barobarida uni zamona bilan to'g'ri payvand qilib, kelajakka asqotishi uchun ham bosh qotirishi bugungi adabiyot ilmining vazifasidir³.

2. Mumtoz adabiyot tushunchasi va mumtozlik belgilari. «Mumtoz» (arabcha) so'zi lug'atda *tanlangan, saralangan* yoki *xos, maxsus* ma'nolariga ega². Uning Ovro'pa tillaridagi muqobili bo'lgan klassik (lotincha) so'zi ham ayni mana shu ma'noda qo'llaniladi³. Bu so'zning *klass*, ya'ni biror ijtimoiy sinfga aloqador deb talqin qilinishi xorijiy manbalarda uchramaydi. “Mumtoz” so'zi muayyan asarga, adibga yoki adabiyotning katta bir davriga munosabatda nisba, sifatlash bo'lib qo'llanilishi mumkin. Mas., *mumtoz asar, mumtoz shoir, mumtoz adabiyot* kabi. Bu o'rinda baholash ma'nosi ham mavjud bo'lib, yuksak namunali, boshqalardan ajralib turuvchi ma'nolariga ham ega.

Bu kabi talqinlardan kelib chiqadigan bo'lsak, mumtoz adabiyot tushunchasi ham tanlangan adabiyot ma'nosiga egaki, u davrlar sinovidan o'tib, eng muhim va umuminsoniy jihatlari bilan sarananib boradi. Biroq uni ayrim guruh uchun ajratilgan, ya'ni aho-

² Фитрат А. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент-Самарканд: 1928. - Б.11; Кайта нашри: Т.: MUMTOZSO'Z, 2012.

³ Болтабоев Х. Эртани degan кечани қўймас / «ЎзАС», 1997, 19 декабрь; Мумтоз сўз кадри. Т.: Адолат, 2004. Б. 6.

² Qarang: Алишер Навоий асарлари тилининг изохли лугати. Т.: Фан, 1983. Б. 350.

³ Shuningdek, *klassik so'ziningnamunalni, omma tomonidan qbul etilgan ma'nolari ham borki, bu yuqoridaq mazmuni inkor etmaydi*. Qarang: Словарь иностранных слов. М., 1954. С. 325; "Д.Куронов в.б. Адабиётчинослик лугати. Т.: Академнашр, 2010. Б. 139.

lining maxsus qismiga bag‘ishlangan (elita) xoslar adabiyoti deb qarash noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu o‘rinda xos, maxsus kalimalari ijtimoiy guruh ma’nosida emas, balki adabiy did, zakovat ma’nosida keladi. Tabiiyki, mumtoz adabiyot tushunchasi milliy kesimda ham qo‘llanilib, *o‘zbek mumtoz adabiyoti, arab mumtoz adabiyoti yoki fransuz mumtoz adabiyoti* shakllarida ham keladi.

Mumtoz adabiyot tushunchasining adabiy iste’molga kiritilishi adabiyot tarixining vujudga kelish davridan ancha kech sodir bo‘lgani ayni haqiqat. Chunki har qanday jamiyatda ham avval hodisa sodir bo‘ladi, keyinchalik sekin-astalik bilan hodisaga mansub jihatlar shakllanib, uning atamasi – istilohi ilmiy muomalaga kiritiladi. Shu ma’noda o‘zbek mumtoz adabiyotining vujudga kelish, shakllanish va taraqqiyot davri hamda so‘nishi, boshqa tipdag‘i adabiyotga o‘z bag‘ridan joy berishi holatlari kuzatiladi.

Mumtoz adabiyotning davr nuqtai nazaridan boshlanishi va intihosi bo‘lgani kabi uning hudud nuqtai nazaridan ham chegaralari bo‘lishi tabiiy. Bundan tashqari, har bir milliy adabiyotning o‘ziga xos belgi-xususiyatlari, ilmiy istiloh bilan aytganda, birlklari bo‘ladi. O‘zbek mumtoz adabiyoti ham yuqoridagicha davr va hudud birligidan tashqari, til birligi (turk-o‘zbek), yozuv birligi (runiy, uyg‘ur, arab yozuvlari asosidagi), istifodadagi ifoda shakllari (nasr, nazm), qo‘llanilayotgan janrlar birligi, she’riy tizimi hamda unda vazn (aruz) va qofiya tizimiga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

XX ast boshlarida milliy adabiyotlardagi mafkura birligi (shoro voqeligida) asos qilib olingani kabi tarixda o‘scha mumtoz adabiyotning e’tiqod birligi (islom) ham mavjud bo‘lishi uning milliy va umuminsoniy jihatlarini xarakterlaydi.

3.Davrlashtirish istilohi va tamoyillari. “Davrlashtirish” tushunchasi yoki bu tushunchani tashigan istiloh tarixga nisbatan qo‘llanilgani kabi adabiyot tarixiga nisbatan ham ko‘proq qo‘llani-

ladi. Shuning uchun “davrlashtirish” deyilganda uning predikati fatida (nimani?) adabiyot tarixini (umuman, badiiy adabiyot emas) davrlashtirish deb ishlatalidi. Adabiyot tarixini davrlashtirish uchun dastlab adabiy istilohlarni belgilab olish, so‘ngra esa davrlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

“Davrlashtirish” tushunchasi asosida “davr” istilohi yotadi. Bu “davr” deb atagan so‘z “zamon”, “vaqt”, “muddat”, “fursat”, “qo‘llanilib” kabi ma’nolarni anglatadi. Biroq biz adabiyotshunoslikda davrlashtirishga munosabatda “davr” atamasini faol qo‘llaymiz. Xorijiy o‘zlashmalar asosida rus tilida davr tushunchasi “period”, “epoxa”, “stadiya” so‘zlarini orqali ifodalanibgina qolmay, har bi so‘z muayyan ma’no qamrovidan kelib chiqib, alohida atamaga aylangan. Mas., “period” nisbatan “kichikroq davrlar”ga nisbatan qo‘llanilib, u ko‘proq yillar, o‘n yilliklar va asrlarga nisbatan ishlataladi. “Epoxa” undan kengroq tushuncha bo‘lib, o‘z tarkibiga boshchani, ya’ni bir necha asrlarni qamrab oluvchi “epoxa”ni ham “davr” so‘zi orqali anglatamiz. Adabiyotshunoslikda «stadiya» (ayrim ilmiy asarlarda «stadialnaya obshnost») tushunchasi bor. Ummajahon adabiyoti tarixining muayyan “davri”ga nisbatan qo‘llanilib, uning doirasiga antichnost (qadimgi davr), srednevekovye (o‘rta asrlar), Renessans – Vozrojdeniye – Uyg‘onish (ayrim tarixiy manbalarda Intiboh) va boshqa tushunchalarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Biz o‘zbek tilida uni ham “davr” deb ataymiz: antik davr, o‘rta asrlar, Uyg‘onish (yoki Intiboh) davri kabi. Demak, biz o‘zbek tilidagi adabiyotshunoslik masalalariga munosabatda ham uch tushunchani bir so‘z, ya’ni “**davr**” so‘zi orqali anglatamiz va yuqoridagi kabi yillarga nisbatan ham (20-yillar adabiyoti), asrlarga nisbatan ham (XX asr adabiyoti) hamda “davriy umumlashma”.

(“stadijalnaya obshnost»ni biz shunday tarjima qildik, agar qabul qilinsa, adabiy istilohga aylanar, qabul qilinmasa, undan-da ishonchliroq boshqa kalima topilar)ga nisbatan ham birgina “davr” so‘zidan foydalanamiz.

Adabiyot tarixini davrlashtirilayotganda “davr” so‘zi zimmasidagi ana shu istilohiy “yuk”larning ayirmsini belgilab olmay turib, davrlashtirish tamoyillarini izlaganda xatoliklarga yoki chal-kashliklarga duch kelaveramiz. Albatta, o‘zbek (kengroq ma’noda turk tili) boy til, har bir tushunchani aniq ifodalay oladigan o‘z so‘zlarimiz bor. Biroq adabiyotshunosligimizda hozircha *davr* faol-roq qo‘llanilib turibdi. Payti kelib, yuqoridagi uch ma’nodan biri “zamon” orqali, boshqasi “muddat” (yoki fursat, on v.b.) orqali o‘z yechimini topishi mumkindir. Biroq biz, umuman, adabiyot tarixini, xususan, o‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari ishlab chiqilayotganda yuqoridagi uch jihat hisobga olinishining tarafdirimiz. Chunki o‘zbek adabiyoti tarixi o‘zining boy merosi bilan nafaqat turkiy xalqlar yoki Osiyo, balki umumjahon adabiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Shunday ekan, umumjahon adabiyoti tarixini davrlashtirishdagi so‘nggi tamoyillarga suyanib ish tutsak har holda jahon adabiyotshunosligidan ketda (hatto chetda ham) qolib ketmasak kerak deb o‘ylayman. Demak, davrlashtirish tamoyillariga o‘tishdan avval “davr” tushunchasi zimmasidagi bir necha ma’nolar (epoxa, stadiya)ni ham o‘zbek adabiyoti tarixiga nisbatan faol qo‘llash mumkin bo‘ladi. Chunki adabiyotimiz tarixi qadimiyligi jihatidan ham, boyligi va istiqboli jihatidan ham boshqa xalqlar adabiyotidan qolishmaydi.

Davr (vaqt jihatidan) chegaralari. O‘zbek adabiyoti tarixinining davriy chegaralarini aniqlashda biror siyosiy voqeя yoki mashhur hukmdorning davlat tepasiga kelishi, inqilobiy hodisalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiq emas. Badiiy adabiyotning chegaralari